

## TILSHUNOSLIKDA SO‘Z MUSTAQILLIGI VA SO‘ZLOVCHI SHAXS

**Sharifa Iskandarova**

*Farg‘ona davlat universiteti professori*

*Annotatsiya. Maqolada so‘z va unga nisbatan qarashlar, so‘zlovchi shaxs, nutqiy jarayonda kommunikantlarning o‘rni xususida fikr yuritiladi.*

*Kalit so‘zlar: leksik-semantik sistema, so‘z, semik struktura, pragmalingvistika, antropolingvistika, nominatsiya, gnoseologiya, etnos, etnomadaniyat.*

Bizga ma’lumki, tilshunoslikda leksik-semantik sistemaning nima ekanligi, uning shakllanishi, unda muayyan munosabatlarning yetakchilik qilishi borasida turlicha talqinlar mavjud. Xususan, so‘zning mustaqilligini e’tirof etish masalasida bir-biriga zid bo‘lgan ikki xil qarash kuzatiladi. So‘zga nisbatan til birligi sifatida yondashuvchilar semik struktura asosida LSSni e’tirof etadilar. Aksincha, so‘z mustaqilligini rad etuvchi olimlar semantik maydon asosida sistemani shakllantirish tarafdori sanaladilar [1;5]. Aynan ikkinchi yo‘nalish til strukturasi so‘zlovchi shaxs bilan bog‘lab o‘rganish, lingvistik tadqiqot paradigmasiga “so‘zlovchi shaxs”ni kiritish natijasida maydonga keldi.

Nutqiy jarayonda so‘zlovchi shaxsga e’tiborning tortilishi tilshunoslik tarixida katta voqea bo‘ldi. Chunki struktur tilshunoslikning belgining belgi bilan munosabatini o‘rganishga asosiy e’tiborni qaratganligi natijasida belgining obyekt bilan, belgining subyekt bilan munosabati masalasi tilni sof “shakl” sifatida talqin qiluvchi strukturalistlar nazaridan ancha chetda qolgan edi. Tilshunoslikdagi xuddi shu cheklangan tomonni to‘ldirish harakati tufayli pragmalingvistika, neolingvistika, antropolingvistika nomi bilan yuritilayotgan tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari rivojlana boshladi.

Hech bir tilni “til egasi”dan ajratgan holda to‘g‘ri va to‘liq o‘rganish mumkin emas. Har bir nutq aktida so‘zlovchi shaxsning o‘rni sezilib turadi. Nutqiy jarayonda kommunikantlarning til haqidagi bilimlari ularning bir-birlarini to‘g‘ri va aniq tushunishlari uchun yordam beradi. Nemis olimi V.Gumboldtning “tushunishlik va tushunmaslik” antinomiyasi ham xuddi shu jarayonni ifodalash uchun qo‘llanilgan edi. Insonning olamni bilish jarayonida nominatsiya katta ahamiyatga ega. Har qanday shaxs o‘zini qurshab turgan olam uzvlarini bilish orqali uning muhim belgilariga tayangan holda nom beradi. Shuning uchun ham nominatsiya barcha tillarga xos universal hodisa sifatida antik davrlardan buyon faylasuflarni qiziqtirib keladi. Nominatsiya narsa va hodisalarni boshqalardan nom berish orqali ajratish, farqlash bilan bog‘liq lingvistik faoliyat ekanligi bilan birga, ularni bilish bilan aloqador gnoseologik vazifani bajarishga ham xizmat qiladi.

Har qanday nominativ birlik borliqdagi narsa-hodisalar, harakat-holatlarni nomlaydi. Bu narsa va hodisalar, harakat va holatlarning umumlashgan obrazlari ongimizda aks etadi. Ana shu ongda aks etgan obraz u yoki bu tilning akustik signallari orqali ifodalanadi. Mazkur uch bosqich umumiy nominatsiya jarayonining zaruriy komponentlari sanaladi. Nominatsiya jarayonidagi dastlabki ikki komponent, ya’ni denotat va signifikat (kontsept) barcha tillarning nominatsiya jarayoni uchun umumiy bo‘lib, uchinchi bosqichda tillar o‘rtasida farqlanish ro‘y beradi.

Ikkinchi bosqich olamning inson ongida kontseptualizatsiyasida namoyon bo‘ladi. Borliqdagi narsalarning xususiy belgilari chetlashtirilgan holda, umumiy belgilarini kontseptuallashtirishda xizmat qilish barcha tillar uchun umumiy bo‘lsa ham, lekin kontseptuallashtirilayotgan narsaning qaysi belgilari umumlashtirishga asos bo‘lishi bilan tillar o‘rtasida farqlanish bo‘lishi mumkin. Narsaning muayyan belgilaridan umumlashtirishga qaysisi asos bo‘lishiga ko‘ra tillar o‘rtasida farqlanish bo‘lishi mumkin. Aksar narsa va hodisalarning nomlanishida xalqning olamni o‘ziga xos ko‘rishi, xalqning obraz yaratishdagi o‘ziga xosligi namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham narsa va uning nomi o‘rtasidagi munosabatni, narsaning nima uchun shunday nomlanish sababini, motivatsiyasini yoritish qadimdan olimlarni qiziqtirib kelgan.

B.A.Serebrennikovning ta’kidicha, shartli va sun’iy ravishda tanlangan aloqaga hech qachon aks ettirish sifatida qarab bo‘lmaydi. U ma’no va tushunchani o‘zaro farqlagan holda, ma’noni in’ikos kategoriyasi ekanini inkor etadi [2;71]. Ma’no lingvistikaning o‘rganish obyekti, tushuncha esa mantiqning o‘rganish obyekti sanaladi, ma’no lingvistik belgi tuzilishiga kirsam, tushuncha hukm uzv(komponent)idir. Tushunchalar obyektiv borliqdagi narsa va hodisalarning umumlashgan obrazini aks ettiribgina qolmasdan, balki borliqda mavjud bo‘lmagan, insonning tafakkur olami tomonidan hosil qilingan narsa va hodisalarning umumlashgan obrazini ham aks ettirishi mumkin.

So‘z insonga bevosita kuzatishda berilmagan narsa va hodisalar haqida ham axborot bera oladi. Shuning uchun ham hayvonot faqat bir olamga – sezgi orqali his qilish mumkin bo‘lgan predmetlar olamiga ega bo‘lsa, inson ikki olamga – sezgi orqali his qiladigan olam bilan birga, so‘z orqali ifodalanadigan obrazlar, munosabat, sifatlar dunyosiga ega bo‘ldi [3; 37].

Shunga muvofiq, so‘zlarning borliq (denotativ) ma’nosi real va afsonaviy tushunchalar bo‘lishi ham mumkin. Qanday tushunchani ifodalashiga muvofiq, so‘zlar ham borliqdagi inson ongidan tashqarida bo‘lgan narsa va hodisalarni nomlovchi so‘zlar hamda inson tomonidan yaratilgan afsonaviy narsa va hodisalarning nomlarini ifodalovchi so‘zlar sifatida ajratiladi.

Bizga ma'lumki, u yoki bu xalqning urf-odatlar yig'indisi shu xalq etnomadaniyatining tarkibiy qismi sanaladi. Har qanday etnomadaniyat shu xalqning tilida o'z ifodasini topadi. Demak, shu til egalarining madaniyati, turmush tarzi, urf-odatlari va boshqalarni ifodalovchi vosita hamdir. Bu xususiyat uning kumullyativ funktsiyasida namoyon bo'ladi.

Yer yuzida istiqomat qilayotgan barcha xalq va elatlarni yaxlit sistema deb hisoblasak, bu makrosistema tarkibidagi alohida etnoslar muayyan belgilari bilan, xususan, tili, kelib chiqishi, moddiy va ma'naviy madaniyati, maishiy turmush tarzi va psixologiyasi bilan bir-biridan ajralib turadi.

Demak, dunyodagi barcha xalqlar umumiy belgilariga ega bo'lishlari bilan birga, o'ziga xos jihatlari ega [4, 5]. Ana shu o'ziga xos belgilardan biri ularning urf-odatlaridir.

Ko'rinadiki, urf-odatlar muayyan etnosning butun etnografik sistemasida differensial belgi rolini o'ynar ekan, ularning tilda ifodalanishini o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki etnografiya uchun ham katta ahamiyatga ega. Ayni vaqtda, har bir tilda etnografik tushunchalarni ifodalovchi maxsus leksemalar mavjud bo'lib, ular etnografik leksika guruhini tashkil etadi va bu mikrosistema shu til makrosistemasining bir bo'lagi sanaladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография. М., 1976.
2. Серебренников Б.А. О материалистическом подходе к явлениям языка. – М.: Наука, 1983.
3. Лурия А.Р. Язык и сознание. – МГУ, 1979.
4. Жабборов И. Жаҳон халқлари этнографияси. – Тошкент, 1985.
5. Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. – Тошкент: Фан, 2007.